

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti
prorektori

Sulaymanova Dildora Nazarovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti "Pedagogika va umumiy
psixologiya" kafedrası mudiri

GLOBALLASHUV SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING LOYIHAVIY (PBL) ASOSLARI

UO'K: 378.147

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_5_1](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_5_1)

IBRAGIMOV A.A., SULAYMANOVA D.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING LOYIHAVIY (PBL) ASOSLARI

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida ta'lim jarayonini takomillashtirishga oid bilimlar hamda pedagogik hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari tahlil etilgan. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish yo'llari, pedagogik faoliyatni rivojlantirish usullari hamda o'quv-tarbiya jarayoni loyihasiga qo'yiladigan zamonaviy talablar nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, talabalarning kasbiy va shaxsiy sifatlarni egallashi, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish hamda o'z kasbiy faoliyatlarini ilmiy asosda tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: Loyihaga asoslangan o'qitish (PBL), kasbiy mahorat pedagogik hamkorlik, globallashuv va ta'lim, kasbiy-shaxsiy sifatlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ilmiy asoslangan faoliyat, ta'lim-tarbiya loyihasi.

ИБРАГИМОВ А.А., СУЛАЙМАНОВА Д.Н. ПРОЕКТНЫЕ (PBL) ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

В данной статье анализируются теоретические основы совершенствования профессионального мастерства будущих учителей и развития педагогических процессов в условиях глобализации. В исследовании теоретически обоснованы пути развития педагогической деятельности, способы повышения квалификации будущих педагогов, а также современные требования, предъявляемые к проектированию учебно-воспитательного процесса. Также рассматриваются вопросы освоения студентами профессиональных и личностных качеств, использование возможностей информационно-коммуникационных технологий в образовательном про-

цессе и формирование навыков научной организации собственной профессиональной деятельности.

Ключевые слова и понятия: Проектное обучение (PBL), профессиональное мастерство, педагогическое сотрудничество, глобализация и образование, профессионально-личностные качества, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), научно обоснованная деятельность, проект учебно-воспитательного процесса.

IBRAGIMOV A.A., SULAYMANOVA D.N. PROJECT-BASED LEARNING (PBL) FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE PROFESSIONAL MASTERY OF FUTURE TEACHERS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

This article analyzes the theoretical foundations of improving the professional mastery of future teachers and the development of pedagogical processes in the context of globalization. The research examines the specific characteristics and functions of pedagogical cooperation, alongside modern requirements for designing the educational-instructional process. Particular emphasis is placed on the methodology of integrating Project-Based Learning (PBL) to foster students' professional and personal qualities. Furthermore, the study explores the opportunities provided by Information and Communication Technologies (ICT) in developing students' skills to organize their professional activities on a scientific basis.

Keywords and concepts: Project-Based Learning (PBL), professional mastery, pedagogical cooperation, globalization and education, professional and personal qualities, ICT, scientific-based activity, educational-instructional design.

Kirish. Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirishga bog'liq faoliyatiga qo'yiladigan talablarning sezilarli kuchayishi ularning tafakkurga asoslangan ko'nikmalariga e'tiborni ustuvorlashtiradi. Butunjahon iqtisodiy forumida taqdim etilgan ta'lim modelining bosh g'oyasini "4K: kritik tafakkur, kreativlik, kommunikatsiya, kolloboratsiya" ko'nikmalari tashkil etishi ham ta'lim sohasida yuqori natijalar ko'rsatayotgan davlatlarda bu kompetensiyalarning prerogativligiga¹ mutanosibligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarda faoliyatini loyihalashtirish, ongli tahlil qilish, tafakkurini rivojlantirish, ijodiy qobiliyalarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish asosida pedagoglarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlanishning samarador texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la birin-ketin anglanishiga

bog'liq². Xususan, talabalarni kasbga tayyorlashda pedagogik umumiy (pedagogik faoliyat uchun umumiy), bosqichli (pedagogik jarayonning ma'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan, ya'ni alohida olingan bosqich vazifalari), xususiy (mavjud va yuzaga keluvchi vaziyatli) vazifalarni turlariga ko'ra aniqlashtirish, ularni bajarishga tayyorlik holatida bo'la olishlariga e'tibor qaratish muhim. Chunki ushbu vazifalarni o'z vaqtida anglash hamda bajarish kasbiy faoliyatiga to'g'ri yondashuvni paydo qiladi. Ayniqsa, hozirgi biror bir fanning o'qitish metodikasini pedagogik sohasiz tasavvur qilib bo'lmaydigan bir davrda, uning maqsad hamda vazifalarini bajarish orqali o'qitishning, o'quv-bilish jarayoni faolligining sabablarini izohlashga ko'maklashishi ma'lum.

Zero, bugun vaqtga emas, o'qitish natijalariga yo'naltirilgan ta'lim samarali hisoblanadi. Atamalarni, dalillarni, tushunchalarni yodlash va esda saqlashga qaratilgan an'anaviy o'qitish tizimi bilish jarayonlarini faollashtirish, amalda bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutuvchi hamda mustaqil faoliyatga asoslangan ta'limga o'z ustuvorligini bo'shatib bermoqda. Demak, tanqidiy, kreativ tafakkurga ega,

¹ School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report, UNESCO, 2016

² Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari // O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.

o'zining intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladigan bitiruvchilarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratishi mumkin bo'lgan kompetentli yondashuvga o'tishga imkon beruvchi ta'lim muhitini yaratish borgan sari dolzarblashadi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasi turli tadqiqotchilar tomonidan zamon, o'sha davr fan olami nuqtai nazaridan o'rganilgan, talqin qilingan, ilmiy-nazariy jihatdan asoslanilgan. Vaqtlar o'tishi bilan mukammallashib borayotgan o'qitishning shakl, metod hamda vositalarini yangilash, o'zgartirish, ularni ta'lim oluvchining yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish, ta'limning maxsus pedagogik-psixologik sharoitlarini yaratish muammolari yuzasidan alohida izlanishlar olib borilgan.

Keyingi yillarda yuqoridagi kabi tadqiqotlar natijasida, ayniqsa, xorij metodikasida ta'lim ishtirokchilarining ongli faoliyatini, undagi kognitivlikni rivojlantirishga qaratilgan qator o'qitish tamoyillari (uzluksizlik, individuallashtirish va tabaqalashtirish, modullilik, variativlik, refleksivlik, ilmiy-metodik kuzatuv, elektivlik, integrativlik), yondashuvlari (kompetensiyaviy, innovatsion, kreativ, shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ, kognitiv va b.q.), o'qitish turlari (muammoga asoslangan o'qitish, shaxsga, tadqiqotchilikka, faollikka, loyihaga asoslangan o'qitish va b.q.) amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda va ta'lim taraqqiyotining yangi bosqichlarini kashf etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu ishda loyihaga asoslangan o'qitish (PBL)ning o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi o'rni, respublika va xorijiy ilmiy tadqiqotlardagi tahlili, PBL bo'yicha mualliflik ta'rifi hamda uning tarkibiy elementlari keltirilgan.

Izlanish mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning qisqacha tahlili.

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, loyihaga asoslangan o'qitishning (PBL – Project-based learning) mazmun-mohiyatini, pedagogik izlanish manbai sifatidagi respublikamiz va xorijiy davlatlar ta'lim metodikasida o'rganilishini tahlilga tortdik.

Respublikamizda sohaga oid tadqiqotlarda loyihalash texnologiyasi bo'yicha ko'plab izlanishlarga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan,

O'.Tolipov "pedagogik jarayonni loyihalash loyiha-mazmun-faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir. Loyihalarda pedagog tomonidan ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashxisning qo'yilishi bilan yakunlanuvchi tahliliy faoliyat: oldindan ko'ra bilish va loyihalash kabi ijodiy faoliyatlar namoyon bo'ladi"¹, deya ta'kidlagan bo'lsa, tadqiqotchi M.H.Mahmudov va bir qator olimlar pedagogik ta'lim nazariyasida loyihalash muammosini ishlab chiqishda uning "faoliyat" tushunchasi bilan uzviy bog'liqligini hamda faoliyatning taxminiy variantlarini yaratish va ularning natijasini tashxislashdan iboratligini ifodalovchi qarashlarni ilgari surishadi². Ayniqsa, professor O'.Tolipov ta'limda pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilar ekan, pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasining har bir vazifasi, bosqichi, o'qituvchining roli, ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari, tamoyillari, strategiyalari, loyihalashning umumiy o'rta ta'limdagi darajalari va ularning mazmun-mohiyatiga batafsil to'xtalib o'tadi³.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish ustida ishlagan A.R.Hamroyev⁴ pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogning faoliyati, pedagogik vositalarni qo'llash mazmuni va imkoniyatigina emas, asosan, alohida o'quvchi va o'quvchilar guruhi tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mazmunini yoritish zarurligiga urg'u beradi va olim tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ona tili darslarini loyihalashga qaratilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimini tadqiq qilgan olim B.B.Ma'murov bo'lajak o'qituvchilar maktabdagi o'quv-tarbiya jarayonini samarali loyihalashtira olishlari uchun talab etiladigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim-

¹ Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari // O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.

² Mahmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari: ped. fan. nom... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 42 b.

³ Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari // O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.

⁴ Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: ped.fan.dok...dis. – Toshkent, 2020. – 246 b.

ligini ko'rsatib o'tadi¹, biz ularni quyidagicha takomillashtirdik:

- o'quv jarayonini loyihalashga oid bilimlar va tushunchalar
- pedagogik jarayon loyihasini takomillashtirishga oid bilimlar
- pedagogik hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalarini anglab yetishlari
- o'quv-tarbiya jarayoni loyihasiga qo'yiladigan talablar
- kasbiy mahoratni takomillashtirish yo'llari
- pedagogik faoliyatni rivojlantirish usullari
- kasbiy va shaxsiy sifatlarni egallaganliklari
- ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish yo'llarini bilishlari
- o'z kasbiy faoliyatlarini ilmiy asosda tashkil etish yo'llarini qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishlari
- akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalashda tizimlashtirish, modelashtirish, konstruksiyalash, yagona etalonga keltirish, ikkilamchi didaktik loyihalarni yaratish ko'nikmasiga ega bo'lishlari kabilar

Keltirib o'tganimiz loyihalash, loyihalash texnologiyasi borasidagi fikrlar umumiy pedagogik jarayonni rejalashtirish, ta'limni loyihalashdan tortib, xususiy, ya'ni o'quv-bilishni yuzaga chiqaruvchi dars jarayonini loyihalash tarkibiy qismlargacha kirib borilgan, yoritilgan. Yuqorida qarashlari tahlilga tortilgan tadqiqotchi-olimlarning ilmiy izlanishlari ta'lim amaliyotining taraqqiy etishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, tadqiqiy maqsadimizda ifodalangan loyihaga asoslangan o'qitish, xorijiy metodikaga asoslanilganligi, ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra ajralib turishi bilan farqlidir. Bunday tahlillarni tadqiqotchi G.Fayzullayeva tomonidan o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga doir olib borilgan izlanishlarida uchratish mumkin. Uning fikricha, "loyihaga asoslangan o'qitish (PBL) loyiha, loyihalash, loyihalab o'qitishning yillar

davomida shakllantirilgan, rivojlantirilgan va takomillashtirilib yangi shakl va mazmun kasb etgan, hayotiylik darajasi oshirib borilayotgan ta'lim yondashuvi hisoblanadi"². Shuningdek, loyihaga asoslangan o'qitishning kichik loyiha darajasida yuzaga chiqqan turlari o'qituvchini, izlanuvchi va o'rganuvchini unga chuqurroq, jiddiyoq qarashdan chalg'itishi mumkinligini ta'kidlaydi hamda Emi Mayerning (*Emi Mayer*) TeachThought universitetining taniqli o'qituvchilarning rivojlanishi orqali ta'limdagi innovatsiyalarga bag'ishlangan tashkilotning elektron ta'lim platformasida³ e'lon qilingan qiyosiy jadvalini tahlilaydi va ularga nisbatan mualliflik munosabatini ifodalab loyiha va loyihaga asoslangan o'qitishning umumiy hamda farqli jihatlarini tadqiq qiladi.

Talabalar bilimini baholash muammolari bilan shug'ullangan tadqiqotchi N.Yusufjonova o'zining "PBL strategiyasi asosida o'qitish va baholashni oliy ta'lim tizimiga joriy etish muammolari" nomli maqolasida baholash tizimini o'zgartirish bilan bog'liq ilmiy-pedagogik tamoyillar o'z-o'zidan nazorat turlarini ham tubdan yangilash, o'quv dasturlarini hozirda ilg'or xorijiy oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga joriy etilayotgan PBL (Project-based learning) strategiyasi, Blum taksonomiyasi hamda dars soati, auditoriya va fan chegaralarini tan olmaydigan dinamik ta'lim mezonlari asosida qayta ishlab chiqish zaruriyatini dalillaydi. Tadqiqotchining fikricha, nazorat ishlarini tashkil etish va baholashda loyihaga asoslangan o'qitishning asosiy yangiligi inson omiliga ta'sir o'tkazishi bilan belgilanadi. Bunda talabaning o'ziga, o'qituvchisiga, kursdoshlariga bo'lgan munosabati, fikri, dunyoqarashi o'zgaradi. Shuningdek, loyihaga asoslangan o'qitish strategiyasining yakuniy targeti amaliyot va o'zi o'rganganlarini boshqalarga ham ulashishdan iboratligini ko'rish mumkin. Yangicha usulda baholash o'quv jarayonining oxirgi nuqtasi emas, balki talabalarni bilish jarayon-

¹ Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi: ped.fan.dok...dis. – Toshkent, 2018. – 263 b.

² Fayzullayeva G.Sh. Nega aynan loyihaga asoslangan o'qitish (Project-based learning) uning tub mohiyati nimada? // Mug'allim ham yzluksiz bilimlendirio' ilimiy-metodikaliq jurnali. – Nukus, 2022. – № 6/7. – B. 276-282.

³ Teach Thought is an organization dedicated to innovation in education through the growth of outstanding teachers: <https://www.teachthought.com/>.

larining keyingi bosqichlariga yo'llash vositasi sifatida tan olinadi¹.

Tadqiqotimiz davomida bugun xorijiy metodika sifatida e'tirof etilayotgan loyihaga asoslangan o'qitishning nazariy-metodologik asoslarini kengroq yoritish, amaliyotdagi holatini tahlil qilish va xorijiy olimlarning keyingi davrlardagi loyihaga asoslangan o'qitish borasidagi izlanishlarida ifodalangan asosiy mazmunga to'xtalish, bular asosida mualliflik ta'rifini yaratish, munosabat bildirish, loyihaga asoslangan o'qitishning farqli tomonlarini yanada aniqlashtirish muhim, deb qaraldi.

Demak, loyihaga asoslangan o'qitish – bu hayotiy, real muammolar asosida loyihalangan, faol o'rganish orqali chuqur bilimga ega bo'lishi kafolatlangan, o'zgaruvchan sinf-dars yondashuvini o'zida aks ettiradi². Yasseri Dar (Yasseri Dar), Finley M. Patrik (Finley, Patrick M.), E.Blayne (Mayfield, Blayne E.), Devis V.Devid (Davis, David W.) va boshqalarning e'tirof etishicha, PBL aniq dalillarni taqdim etuvchi yoki savol berish, muammolar qo'yish, ularning ssenariylarini taklif qilish orqali bilim olishning ravon yo'lini ko'rsatuvchi, qog'ozga, yodlashga, o'qituvchi boshchiligidagi ko'rsatmalarga taylanishdan farqli ravishda faol o'rganish hamda izlanishga asoslangan o'qitish uslubi negiziga quriladi³.

Jon Larmer (John Larmer), Jon Mergendoller (John Mergendoller) va Suzi Boss (Suzie Boss) larning ta'kidlashicha, loyihaga asoslangan o'qitish kuchli o'qitish yondashuvi bo'lib, uni amalga oshirish davomida quyidagilarga ega bo'linadi:

- o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantiradi;
- o'quvchi va talabalarni oliy ta'limga, kasbga, kasbiy o'sish nuqtalarini belgilashga (individual kasbiy trayektoriyani rejalashtirishga), ijtimoiy faol fuqarolikka tayyorlaydi;

- o'quvchi va talabalardan chuqur bilim hamda fikrlash qobiliyatlarini namoyish etishni talab qiladigan topshiriqlarni yaxshi bajarishga (bizningcha, o'qituvchi uchun ijtimoiy buyurtmani bajarishga) yordam beradi;

- o'qituvchilarga yanada qoniqarli tarzda dars berish imkonini taqdim qiladi;

- ta'lim tashkilotlarini nafaqat ota-onalar, boshqa jamoalar, balki butun dunyo bilan muloqot qilish va bog'lanishning yangi usullari bilan ta'minlaydi⁴.

Tomas Markxem fikricha "PBL bilish va bajarishni birlashtiradi, talabalar o'rganilayotgan o'quv dasturidan asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi, uning samarasi o'laroq, hayotiy muammolarni hal qilish va muhim natijalarga erishish uchun bilganlarini amalda qo'llaydi. PBL ta'limni o'quv dasturiga emas, talabaga qaratadi, hamkorlikdagi yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun raqamli vositalardan foydalangani va o'quvchilarni bugungi jahonda talab qilinayotgan global taraqqiyot, ijodkorlik, hissiy barqarorlik, chidamlilik, hamdardlik kabi nomoddiy boylik bilan mukofotlaydi. Albatta, bularni darsliklardan tashqarida o'rgatish mumkin emas, lekin tajriba orqali faollashtirish lozim", deya ta'riflaydi⁵.

Buck Institute for Education instituti tomonidan tashkil qilingan talabalarni loyihaga asoslangan o'qitish (Project-based learning) asosida o'z kasbidagi real voqeylikka tayyorlovchi hamda o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatishga mo'ljallangan "<https://www.pbl-works.org/>" elektron plaformasini o'rganish, kuzatish, olib borilgan ishlarni tahlil qilish⁶ natijasida o'qituvchi tomonidan o'ylab topilgan, uning aniq ko'rsatmalari va tashxisiga yo'naltirilgan "loyihani bajarish" hamda kasbiy hayotda real sodir bo'ladigan, erishilgan yoki yaratilgan mahsulot, taqdimot boshqalar amalda foydalanishi uchun zarur bo'lgan "loyihaga asoslangan o'qitish" tushunchalarining

¹ Yusufjonova N. PBL strategiyasi asosida o'qitish va baholashni oliy ta'lim tizimiga joriy etish muammolari // O'zbekistonda oliy ta'lim. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 75-81.

² Project-Based Learning, Edutopia, March 14, 2016.

³ Yasseri, Dar; Finley, Patrick M.; Mayfield, Blayne E.; Davis, David W.; Thompson, Penny; Vogler, Jane S. (2018-06-01). "The hard work of soft skills: augmenting the project-based learning experience with interdisciplinary teamwork". Instructional Science. 46 (3): 457-488.

⁴ Larmer, John. Setting the standard for project based learning: a proven approach to rigorous classroom instruction // John Larmer, John Mergendoller, Suzie Boss. pages cm Includes bibliographical references and index. ISBN 978-1-4166-2033-4.

⁵ Markham, T. (2011). Project-Based Learning. Teacher Librarian, 39(2). – P. 38-42.

⁶ <https://www.pblworks.org/>

1-jadval. Loyihani bajarish va loyihaga asoslangan o'qitish mazmunining qiyosiy jadvali.

Tayyor loyihani bajarish	Loyihaga asoslangan o'qitish
Aniq belgilangan qisqa muddat ichida bajariladi	Uzoq muddatli (bir hafta, oy yoki bir semestr davrida)
An'anaviy dasturni faollashtiruvchi, yo'riqnomaga qo'shimcha sifatida kiritilgan birlik	Integratsiyalashgan qo'llanma asosida yaratilgan loyiha (Loyiha bu – asosiy birlik)
O'qituvchi tomonidan qat'iy belgilangan yo'nalish asosida	Talabalarning taklifi hamda so'rovi asosida
Tashxis qilingan natija (mahsulot)ga qaratilgan	Natija (mahsulot)ga va jarayonda o'qitishga, o'rganishga asoslangan
Ko'p hollarda talab qilingan standartlar va ko'nikmalar bilan bog'liq emas	Akademik standartlarga va muvaffaqiyatni ta'minlovchi ko'nikmalarga moslashtirilgan
Ba'zan guruhda, ba'zan yakka tartibda auditoriyada yoki uyda ham bajarilishi mumkin	Talabalar bilan hamkorlikda bajariladi, shuningdek, o'qituvchining loyihani amalga oshirish jarayonida sinf ichidagi vaziyatdan kelib chiqib belgilangan ko'rsatmalarini o'zida qamrab oladi
Auditoriya yoki maktab dunyosi ichida qoladi	Haqiqiy dunyo uchun zarur bo'lgan mazmun (kontekst) va dastur yaratiladi
Loyihaning yakuniy natijasi auditoriyada yoki sinfda ko'rsatiladi	Loyihaning natijalari sinf hamda tegishli ommaviy auditoriya bilan baham ko'riladi

farqli jihatlari aks etgan qiyosiy jadvalni mualliflik munosabati bilan takomillashtirdik (1-jadval):

Ushbu elektron platformada quyidagi ta'rifni ham uchratish mumkin: loyihaga asoslangan o'qitish – usul bo'lib, unda talabalar uzoq vaqt davomida haqiqiy, qiziqarli va murakkab savol, muammo topshiriq yoki muammoni o'rganish va ularga javob berish uchun ishlaydilar hamda shu orqali bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Tadqiqotchi-trener Terri Xeykning o'z blogidagi (Teach Thought) qarashlariga ko'ra loyihaga asoslangan o'qitishning uch turi mavjud. Bulardan birinchisi, qiyinchilikka asoslangan o'qitish / muammoga asoslangan o'qitish (Challenge-Based Learning / Problem-Based Learning), ikkinchisi, muhitga yoki joyga asoslangan ta'lim (Place-Based Education), uchinchisi, faollikka asoslangan o'qitish (Activity-Based learning) sanaladi. Qiyinchilikka asoslangan o'qitish – bu o'quvchilarni o'z uylarida, maktablarida va jamoalarida sa'y-harakatlar orqali mavjud real muammolarga yechim topish uchun kundalik hayotlarida zarur bo'lgan texnologiyalardan foydalanishga undaydigan o'qitish va o'rganish uchun qiziqarli fanlararo yondashuv. Olimning fikricha, har qanday loyiha ma'lum bir qiyinchilikni hal qilishga, undan ma'lum natijadorlik orqali rivojlanishga qaratilsa, u haqiqiy loyihaga asoslangan o'qitish sifatida namoyon bo'ladi. Joyga yoki etnik kelib chiqishiga asoslangan ta'lim o'quvchilarni mahalliy meros, madaniyatlar, landshaftlar, imkoniyatlar va tajribalarga olib kiradi,

ushbu o'qitish turidan til san'ati, matematika, ijtimoiy fanlar va boshqa fanlarni o'rganish uchun asos sifatida foydalaniladi hamda shu orqali jamoa bo'lib mahalliy maktab yoki xizmat ko'rsatish loyihalarida ishtirok etish orqali o'rganishni ta'kidlaydi. Faollikka asoslangan o'qitish ko'proq amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan¹.

Maktabda turli fan doirasida o'quvchilar bilan ishlashda loyihaga asoslangan o'qitishni qo'llab ko'rayotgan tadqiqotchi Laurens Xeyvudning ta'kidlashicha, o'quvchilar loyihada qo'yilgan ulkan muammoni bosqichma-bosqich hal qiladilar, jarayonda to'xtalishlar paydo bo'ladi, ya'ni har bir bosqichda kichik muvaffaqiyatsizliklar yuzaga kelishi mumkin. Duch kelingan har bir muvaffaqiyatsizlik o'quvchilarning bilimsizlik sohalarini, nimani xato bajarganliklarini va uni to'g'rilash uchun qanday xatti-harakatni amalga oshirishlari kerakligini bilishga yordam beradi. Ya'ni loyihaga asoslangan o'qitish (PBL) maktabda asosiy bilimlarni egalash uchun qayta murojaat qilishni, o'rganishni vujudga keltiruvchi tabiiy jarayondir. Uning uqtirishicha, sinfni va o'quvchilarni birdaniga loyihaga asoslangan o'qitishga o'tkazib bo'lmaydi, buning uchun o'qituvchi eng kichik darajadan boshlashi va keyinchalik keng hajmdagi, uzoq muddatli loyihalarga olib borishi mumkin².

¹ Terry Heick. <https://www.teachthought.com/project-based-learning>

² Lawrence Haywood. <https://ahaslides.com/uz/blog/project-based-learning-examples-ideas>

Loyihaga asoslangan o'qitishda jamoada ishlash muhim mezon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, dasturlarni shakllantirish va jarayonni tashkillashtirishda shu mezonga mo'ljall olish ta'lim oluvchilarda hamkorlikni rivojlantirish, har bir ishtirokchining mas'uliyatini belgilash, sarflanadigan vaqtni to'g'ri taqsimlash, har bir unsurga nisbatan tanqidiy munosabat, fikrlashga majburlik holatini vujudga keltirish, muammolarga mustaqil yechim taklif qilish, jamoadoshlar fikriga ochiqlik ko'nikmalarini mustahkamlashga zamin yaratadi. Loyihaga asoslangan o'qitishning yana bir ijobiy jihati yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida turli tadqiqotlar o'tkazish, loyihalash, rejalashtirish, amalga oshirish, korreksiyalash tarkibiy qism bo'lganligi sababli ko'nikma va malakalarini tajribadan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Muhokama va mualliflik ta'riflari.

Tadqiqot davomida olib borilgan o'rganishlar va tahlillar, ishda ilgari surilayotgan gipoteza loyihaga asoslangan o'qitish texnologiyasi tushunchasiga nisbatan mualliflik ta'rifini shakllantirish imkonini berdi:

Loyihaga asoslangan o'qitish – bo'lajak o'qituvchilar kreativ tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtiruvchi, didaktik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, yo'naltiruvchi savollar, doimiy ishlash, chuqur so'rov, haqiqiylik, taklif va tanlov, refleksivlik, tanqidiy fikrlash vositasida natijaga asoslangan texnologiyadir.

PBL ning muhim elementlari

Qiyin muammo yoki yo'naltiruvchi savol – hal qilinishi kerak bo'lgan mazmunli muammo yoki javob topish zarur bo'lgan savol tuzish;

Doimiy, chuqurlashib boruvchi so'rov – savollar berish, resurslarni topish va ma'lumotlarni qo'llashning kengaytirilgan jarayoni bilan shug'ullanish;

Haqiqiylik – real dunyo konteksti, vazifalar, vositalar, standartlar, o'zaro ta'sir, shaxsiy tashvishlar, qiziqishlar va muammolarni o'z ichiga olish;

Talaba taklifi va tanlovi – loyiha bo'yicha ba'zi qarorlar qabul qilish, ularni tahlil qilish, ishlashini tekshirish, yaratish, fikrlarini ifodalash;

Refleksiya – o'rganish, so'rov va loyiha faoliyati samaradorligi, talabalar ishini sifati,

yuzaga keladigan to'siqlar va ularni bartaraf etish strategiyalari haqida fikr yuritish;

Tanqid va qayta ko'rib chiqish – mavjud jarayonlarni va mahsulotlarini yaxshilash uchun o'zaro fikr-mulohazalarni bildirish, o'qituvchi bilan maslahatlashish va mukammallashtirish;

Ommaviy mahsulot (taqdimot) – o'z loyihasini boshqalar bilan bo'lishish, tushuntirish yoki barchaga taqdim etish orqali ochiqlash.

Loyihaga asoslangan o'qitishga xos bo'lgan tajriba bo'lajak o'qituvchilarda bilimlardan foydalanishdagi kreativ tafakkur va uni rivojlantirishda tug'ilishi mumkin bo'lgan muammolardan qochishga ko'maklashadi, samaradorlik va natijadorlikka ega bo'lgan ijobiy pedagogik hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosalar:

1) bilimga asoslangan jamiyatga transformatsiya jarayonida ta'lim muassasalari yagona manba maqomini yo'qotadi, unda shaxsning dunyoqarashi, iqtidori, malakasi, o'zgarishlarga moslashuvchanligi, turli axborot manbalaridan kerakli ma'lumotlarni olish ko'nikmasi, kognitiv imkoniyatlari ustuvor omilga aylanadi;

2) loyihaga asoslangan o'qitishni birgina dars chegaralarida amalga oshirib bo'lmaydi, u dars bilan bog'liq butun jarayonni, ya'ni o'quv maqsadini shakllantirish, uni rejalashtirish, mazmuni, shakli, vositalarini to'g'ri tanlash, baholashni amalga oshirish, ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlash, muayyan vaqt sarflash, muddatlar egiluvchanligini ta'minlashni ifodalaydi;

3) loyihaga asoslangan o'qitish jarayonida o'qituvchi markazdan suriladi, uning roli bilimlarni uzatuvchi asosiy omildan ko'maklashuvchi, maslahat beruvchi, yo'naltiruvchi, o'zaro va qayta aloqani tashkil qiluvchiga aylanadi, ta'lim oluvchilarning mustaqilligi, hamkorligi, erkinligi, tafakkurini rivojlantirishga sharoit yaratadi;

4) jarayonda jamoada ishlashning ustuvorligi talabalarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, uni asoslash, jamoadoshlariga tushuntira olish, aniq dalillarni keltirish, ular bilan konstruktiv muloqotga kiritish, ularni eshita olish, fikrlarini hurmat qilish, moslashuvchanlik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzullayeva G.Sh. Nega aynan loyihaga asoslangan o'qitish (Project-based learning) uning tub mohiyati nimada? // Mug'allim ham yzluksiz bilimlendirio' ilimiy-metodikaliyq jurnali. – Nukus, 2022. – № 6/7. – B. 276-282.
2. Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: ped. fan.dok...dis. – Toshkent, 2020. – 246 b.
3. Larmer, John. Setting the standard for project based learning: a proven approach to rigorous classroom instruction // John Larmer, John Mergendoller, Suzie Boss. pages cm Includes bibliographical references and index. ISBN 978-1-4166-2033-4.
4. Lawrence Haywood. <https://ahaslides.com/uz/blog/project-based-learning-examples-ideas>
5. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi: ped.fan.dok...dis. – Toshkent, 2018. – 263 b.
6. Mahmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari: ped. fan. nom... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 42 b.
7. Markham, T. (2011). Project-Based Learning. Teacher Librarian, 39(2). – P. 38-42.
8. Project-Based Learning, Edutopia, March 14, 2016.
9. School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthess report, UNESCO, 2016
10. Teach Thought is an organization dedicated to innovation in education through the growth of outstanding teachers: <https://www.teachthought.com/>.
11. Terry Heick.<https://www.teachthought.com/project-based-learning>
12. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari // O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.
13. Yasseri, Dar; Finley, Patrick M.; Mayfield, Blayne E.; Davis, David W.; Thompson, Penny; Vogler, Jane S. (2018-06-01). "The hard work of soft skills: augmenting the project-based learning experience with interdisciplinary teamwork". Instructional Science. 46 (3): 457–488.
14. Yusufjonova N. PBL strategiyasi asosida o'qitish va baholashni oliy ta'lim tizimiga joriy etish muammolari // O'zbekistonda oliy ta'lim. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 75-81.
15. <https://www.pblworks.org/>